

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI  
LUG'ATLARDA SINONIMLARNING  
LEKSIKOGRAFIK TALQINI**

*Dildora Husanova, Termiz davlat universiteti tayanch  
doktoranti*

**LEXICOGRAPHIC INTERPRETATION OF  
SYNONYMS IN ENGLISH AND UZBEK  
DICTIONARIES**

*Dildora Husanova, Doctoral student of termiz state university*

**ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКАЯ  
ИНТЕРПРЕТАЦИЯ СИНОНИМОВ В  
АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ СЛОВАРЯХ**

*Дилдора Хусанова, докторант термезского  
государственного университета*

**Annotatsiya:** Ma'nodosh so'zlar inson nutqini ifodali va ravon qilish uchun juda muhim omil hisoblanadi. Nutqda sinonimlardan foydalanish uchun esa albatta ular o'trasidagi ma'no nozikliklarni anglash va to'g'ri qo'llay olish muhimdir. Quyida sinonimlarning so'zlashuvchilar tomonidan foydalnishi uchun mo'ljallangan lug'atlardan misollar va ulardagи ma'nodosh so'zlarning leksikografik talqinlari haqida so'z bordi. Ushbu sinonimlarning ifodalanilishida ingliz va o'zbek tilidagi bir nechta lug'atlar va ulardagи misollardan foydalanildi.

**Kalit so'zlar:** sinonimlar, lug'at, ta'rif, otlar.

**Abstract:** Synonyms are a very important factor for making human speech expressive and fluent. In order to use synonyms in speech, it is important to understand the nuances of meaning behind them and be able to use them correctly. Below are examples of synonyms from dictionaries compiled for use by speakers and lexicographic interpretations of synonyms in them. Several english and uzbek dictionaries and examples from them were used to express these synonyms.

**Key words:** synonyms, vocabulary, definition, nouns.

**Аннотация:** Синонимы являются очень важным фактором для того, чтобы сделать человеческую речь выразительной и беглой. Чтобы использовать синонимы в речи, важно понимать стоящие за ними смысловые нюансы и уметь правильно их использовать. Ниже приведены примеры синонимов из словарей, составленных для использования носителями языка, и лексикографические интерпретации синонимов в них. Для выражения этих синонимов были использованы несколько английских и узбекских словарей и примеры из них.

**Ключевые слова:** синонимы, словарный запас, определение, существительные.

**KIRISH.** Tilshunoslik sohasida leksikologiya boshqa sohalar kabi o'zining muhim ahamiyatiga ega soha hisoblandi. Leksikologiyada sinonim so'zlar, ularning o'rni beqiyosdir. Leksikologiyaning yana bir tarmog'i lug'atchilikda sinonim so'zlar uchun ham alohida lug'atlar

mavjudligi barchaga ayon. Sinonimlarning o'zaro o'xshashliklarini va farqlarini ko'rsatadigan maxsus lug'atlar mavjud. Bu lug'atlar so'zlarining ma'nolarini, ularning o'zaro bog'liqligini va qaysi kontekstlarda foydalanilishini tushuntiradi. Sinonimlarni lug'atlarda keltirishida ularning ma'no



[https://orcid.org/0009-0007-  
2243-8678](https://orcid.org/0009-0007-2243-8678)

e-mail:

[dildora.husanova1@icloud.com](mailto:dildora.husanova1@icloud.com)

shakillari muhim ahamiyat kasb etadi. Bir so‘zning turli xil sinonimlari mavjud bo‘lib, ularning har biri ma’lumot beruvchi bo‘lishi mumkin, masalan, so‘zning umumiyligi yoki maxsus ma’nolari. Jahon tilshunosligida sinonim lug‘atlarning turlari juda ham ko‘plab mavjud. Umumiyligi sinonim lug‘atlarining bir biridan asosiy farqlari bu sinonim so‘zliklarni berilish jihatidir. Ba’zi lug‘atlarda so‘zlarning eng ko‘p ishlataladigan yoki eng mos keladigan sinonimlari keltiriladi va ayrim lug‘atlarda ushbu sinonimlarga kontekstdagi ma’nolarini ochib berish maqsadida misollar ham beriladi. Bu kabi ma’lumotlar yordamida so‘zlovchi so‘zlar orasida to‘g‘ri tanlov qilishni o‘rganib oladi. Bundan tashqari shunday sinonim lug‘atlar ham mavjudki, bu lug‘atlarda sinonim so‘zlarning tarixiy o‘zgarishlari va mintaqaviy ishlatalish holatlari keltirib o‘tiladi, bu kabi lug‘atlar yordamida so‘zlarning qaysi regionda qaysi so‘zlar bilan ma’no o‘xhashliklari mavjud ekanligini bilib olish mumkin. Quyida shu kabi lug‘atlarda sinonimlarning turli xildagi leksikografik talqinlarini o‘rganib chiqamiz.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR

**TAHLILI.** Umuman jahon leksikografiyasida sinonim lug‘atlarining o‘rni beqiyos hisoblanadi. Misol uchun ingliz leksikografiyasida ham sinonim lug‘atlar talaygina bo‘lib, ularda sinonimlarning leksikografik talqini turlicha. Ingliz olimi Jhon Sinclair korpus lingvistikasi va leksikografiya sohasida juda ko‘plab ilmiy ishlar amalga oshirgan. Ushbu olimning “*Collins cobuild dictionary*” nomli lug‘atida shunchaki sinonimlar sanab o‘tilimasdan, kontekstdagi ishlatalish holatlari bilan yoritib berilgan. U sinonimlarning kontekstlar orqali o‘rganilishi muhim ekanligini ta‘kidlab o‘tgan va bu aniq tarjima uchun muhim ekanligini aytgan<sup>1</sup>.

“*Oxford english dictionary*” lug‘atida so‘zliklarga keng qamrovli ta’riflar va tarixiy qo‘llanilishlari berilgan. Ushbu sinonim lug‘atda ma’nodosh so‘zlar orasidagi nyuans (eng nozik farqlar)lar, kontekstlar, tarixiy qo‘llanilishi va konnotatsiyalar bilan ochib berilgan. Lug‘atda bu farqlar asosan ushbu ma’nodosh so‘zlarning gaplar orqali nutqdagi holatini ko‘rsatish orqali ko‘rsatilgan. Undan tashqari *oxford english dictionary* lug‘atida so‘zlarning etimologiyasi va

tarixiy rivojlanishi haqida ham ma’lumotlar keltirilgan va bu orqali sinonim so‘zlarning turli xil ma’no farqlari ifodalangan. Bu esa, o‘z navbatida, nima uchun bir kontekstda bir so‘z boshqa ma’nodosh ekvivalentlaridan afzalroq ekanligini ochib bera olgan.

Yana bir lug‘at – bu “*Cambridge dictionary*”. Ushbu lug‘at “*Oxford english dictionary*” dan farqli o‘laroq aniq va qisqa ta’riflarni o‘z ichiga oladi. Bosh so‘zga asosiy ma’no jihatdan ma’nodosh so‘zlar ro‘yxati keltirilib, ularga qisqacha ma’lumotlar berib ketilgan. *Cambridge dictionary*da ham misol sifatida gaplar keltirilib, sinonimlarning kontekstlardagi nozik farqlari ochib berilgan. Gaplardan tashqari ushbu lug‘atda kunlik ishlataladigan collocation (so‘z birikma)lar ham berilgan.

O‘zbek tili lug‘atlarida ham sinonimlarning leksikografik talqinlarini ko‘rib chiqsak. 2023-yilda Nizomiddin Mahmudov tahriri ostida chop etilgan “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati” da hozirgi o‘zbek tili uchun muhim bo‘lgan sinonimik qatorlar qamrab olingan. Mazkur lug‘atda leksik sinonimlar, ularning leksikografik izohlari, sinonimik qatorlari so‘zlarning ma’no nozikliklari, bu ma’noviy farqlanishlarni dalillovchi, ijobjiy-salbiy bahosi hamda uslubiy o‘ziga xoslikni ko‘rsatuvchi illyustrativ misollar kiritilgan<sup>2</sup>. Ushbu ma’nodosh so‘zlarning izohli lug‘atida bosh so‘z berilib, ushbu so‘zga sinonimik qatorlar keltirilgan, ushbu qatorlari sinonimlarning barchasi uchun umumiyligi ma’noga izoh berilgan, agar zarur bo‘lsa, har bir so‘zning alohida ma’no nozikligi ifodalangan. Undan tashqari nutqdagi darajasi, nutqiy uslubga aloqadorligi va lingvokulturologik jihatni ham keltirilgan.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Ushbu maqolani yozishda bir nechta ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Mavzuimizning obyekti sinonim so‘zlar bo‘lsa, predmeti ularning lug‘atlardagi leksikografik talqinlari hisoblanadi. Ushbu predmetni yoritib berish maqsadida bir nechta ingliz va o‘zbek tillaridagi lug‘atlar saralab olindi. Shu o‘rinda induksiya metodidan foydalanildi, ya’ni umumiyligi lug‘atlar haqidagi ma’lumotlarni spetsifiklashtirib (xususiylashtirib), aynan ikkita tildagi lug‘atlarda misollar bilan ko‘rib chiqildi.

<sup>1</sup> Jhon Sinclair. *Collins COBUILD Dictionary*. HarperCollins Canada. 2010.

<sup>2</sup> O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati.-T.:G’afur G’ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2023.

Ma’nodosh so‘zlarning lug‘atlardagi ifodalanilishini o‘rganish maqsadida turli xil lug‘atlarda ularning ifodalanilishi o‘rganilib, ushbu leksikografik ifodalar taqqoslanildi. Bu qiyoslash orqali sinonimlarning lug‘atlarda ifodalanishi ularning maqsadiga va amaliy jihatiga qanday ta’sir o‘tkazishini ko‘rish mumkin.

**TAHLIL VA NATIJALAR.** Ingliz tilidagi lug‘atlarda ma’nodosh so‘zlarning berilishini ikkita lug‘atdan misol olgan holda ko‘rib chiqsak. Birinchi lug‘atimiz 2002-yilda nashr qilingan “Collins thesaurus: the ultimate wordfinder” lug‘atidir. Ikkinci lug‘atimiz esa, 2008-yilda nashr qilingan “Oxford learner’s thesaurus” lug‘atidir. Ushbu lug‘atlardan *cut* so‘zini olib, ushbu so‘zning ma’nodoshlarining ifodalanishini ko‘rib chiqamiz. “Cut” so‘zi ko‘pma’noli so‘z hisoblanilib, uning har xil ma’nolari jihatidan unga ma’nodosh bo‘lgan so‘zlar alohida saralanib olingan.

“Collins thesaurus: the ultimate wordfinder” lug‘atida berilishini ko‘rib chiqsak.

**Cut verb 1** = slit, saw, score, nick, slice, slash, pierce, hack, penetrate, notch... *thieves cut a hole in the fence ... you can hear a saw as it cuts through the bone ...*

**2** = chop, split, divide, slice, segment, dissect, cleave, part ... *cut the tomatoes into small pieces ...*

**3** = carve, slice ... *mr long was cutting himself a piece of cake ...*

**4** = sever, cut into two, sunder ... *i cut the rope with the scissors ...*

**5** = shape, carve, engrave, chisel, form, score, fashion, chip, sculpture, whittle, sculpt, inscribe, hew .... *Geometric motifs are cut into the stone walls ...*

**6** = slash, nick, wound, lance, gash, lacerate, incise ... *i cut myself shaving<sup>3</sup>*.

Ushbu lug‘atda sinonimlarning ma’no nozikliklariga e’tibor berilgan. So‘zliklar qatorlari turli xil sinonimlarni o‘z ichiga olgan va ushbu sinonimlar bosh so‘zga turli xil ma’nolar bilan bog‘langan. Ammo, bosh so‘zning ma’nodoshlari shunchaki berilgan, ular o‘rtasidagi o‘xhashlik va farqlar haqida ma’lumotlar berilmagan. Sinonimlar

qatorlaridagi bosh so‘zlarning ma’nolari misol tariqasida keltirilgan bitta gaplar orqali sal aniqlashtirilgan, ammo ta’riflar berilmagan<sup>4</sup>.

Keyingi lug‘at – bu “Oxford learner’s thesaurus”.

**Cut verb.**

**Cut.chop.slice.carve.dice**

**Cut** [t] remove smth or part of smth, or divide smth into two or more pieces with a knife, to make or form smth by removing material with a knife: *he cut four slices from the loaf.*

**Chop** [t] to make smaller pieces of smth using smth sharp such as knife: *he was chopping logs of firewood.*

**Slice** [t, i] to cut smth into slices, to cut smth easily with, or as if with a sharp blade: *slice the cucumber thinly.*

**Carve** [t, i] to cut a large piece of cooked meat into smaller pieces for eating: *she taught me how to carve a leg of lamb.*

**Dice** [t] to cut meat, vegetables, etc. Into small square pieces: *diced carrots/lamb.*

Birinchi keltirilgan lug‘atdan farqli o‘laroq ushbu lug‘atda sinonimlarga ko‘proq ma’lumotlar keltirilgan, misol sifatida berilgan gaplar orqali ta’riflar berilgan va ma’nosi juda yaqin sinonimlar o‘rtasidagi farqlar ham ochib berilgan<sup>5</sup>.

**XULOSA VA TAKLIFLAR.** Ma’nodosh so‘zlar lug‘atlarda shunchaki sinonimlar qatorini berish orqali yoki ular orasidagi ma’no nozikliklari va boshqa bir nechta jihatlarni ochib berish orqali ifodalanadi. Sinonim lug‘atlarda quyidagi jihatlarni ham qamrab olish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Ma’nodosh so‘zlarning konnotatsiyalari, chunki konnotatsiyalar emotsiyon va madaniy ma’no nozikliklarini ifoda etadi.

2. Ma’nodosh so‘zlarning kontekstlardagi ifodasi. Chunki sinonimlar situatsiyalarga ko‘ra turli xil ma’nolarni ifoda etadi va ushbu ma’no farqlarni ochib berilishi ularni nutqda to‘g‘ri qo‘llashda muhim hisoblanadi.

3. Sinonimlar orasida nutq jarayonida rasmiy va norasmiy holatda qo‘llash

<sup>3</sup> Collins English Dictionary. Accessed on 1 November 2019.

<https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english>

<sup>4</sup> Jiang G., Q.Chen. A micro exploration into learner’s dictionaries: A prototype theoretical perspective. International Jurnal of lexicography. 2017.

<sup>5</sup> The Oxford guide to practical lexicography. Oxford, New York: Oxford University Press. 2008.

masalasida ham farqlar mavjud. Ushbu farqlar ham nutqning to‘g‘ri ifodasida muhim hisoblanadi.

Yuqorida ko‘rib o‘tganimiz “*Oxford english dictionary*” va “*Cambridge dictionary*”larida sinonimlarning berilishi ikki xil, birinchi lug‘atda ko‘proq batafsil ma’lumotlar, so‘zlarning etimologiyasi va kengroq amaliy qo‘llanilishiga doir misollar keltirilgan. Ikkinci lug‘atda esa qisqa, oddiy ta’riflar berilgan. Shuning uchun ham “*Oxford english dictionary*” ko‘proq olimlar, tilni chuqurroq o‘rganmoqchi bo‘lgan izlanuvchilar tomonidan foydalinilsa, “*Cambridge dictionary*”ni umumiy foydalanuvchilar va shunchaki amaliy qo‘llash uchun tilni o‘rganayotgan insonlar foydalanadi.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Collins english dictionary. Accessed on 1 november 2019. [Https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english](https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english).
2. Jhon Sinclair. *Collins cobuild dictionary*. Harpercollins canada. 2010.
3. Jiang g., q.chen. A micro exploration into learner’s dictionaries: a prototype theoretical perspective. International jurnal of lexicography. 2017.
4. The Oxford guide to practical lexicography. Oxford, new york: Oxford university press. 2008.
5. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati.-t.:g‘afur g‘ulom nomidagi nashriyot manba ijodiy uyi, 2023.

